

Hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi yuzasidan

MA'LUMOT

“O‘zavtosanoat” AJ o‘z faoliyatini “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq amalga oshiruvchi xo‘jalik boshqaruvi organi hisoblanadi.

“Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasiga muvofiq, vazirliklar va idoralar, agar ularga qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish yoki ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish bo‘yicha vakolatlar berilgan bo‘lsa, normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishi mumkin.

Ta’kidlash joizki, “O‘zavtosanoat” AJga yuqorida ko‘rsatilgan qonun hujjatlarining hech birida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vakolati berilmagan.

“Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonunining 8-moddasiga ko‘ra, yuridik xizmatlar quyidagi hollarda korrupsiyaga qarshi ekspertiza o‘tkazadi: ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini — ular ko‘rib chiqish uchun manfaatdor organlarga kiritilguniga qadar; idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni — ular davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga kiritilguniga qadar.

Yuqoridagilarga muvofiq “O‘zavtosanoat” AJ tomonidan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmagan.

Shu bilan birga, “O‘zavtosanoat” AJning yuridik boshqarmasi va Komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamenti tomonidan 2024-yil davomida 334-ta ichki tashkiliy-boshqaruv hujjatlar (213-ta buyruq, 13-ta farmoyish, 66-ta boshqaruv qarorlari, 42-ta boshqa masalalar bo‘yicha yig‘ilish qarorlari) amaldagi qonunchilikka muvofiqligi hamda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash borasida o‘rganilib, kelishilgan.